

Date: 27th June-2026

**TEZKOR-QIDIRUV TADBIRLARI VA TERGOV HARAKATLARINING
INTEGRATSIYASI: “TEZKOR-TERGOV” INSTRUMENTINI
SHAKLLANTIRISHNING HUQUQIY
VA FUNKSIONAL ASOSLARI**

Raximxo‘jayev Rustam Nishonxo‘jayevich

Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi

kafedra boshlig‘i,

yu.f.b.f.d. (PhD), dotsent

Email: raximxo‘jayev@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada tergov harakatlari va tezkor-qidiruv tadbirlarining o‘zaro integratsiyalashuvi, ularning funksional va huquqiy tabiatining transformatsiyalanishi hamda yagona “tezkor-tergov” instrumentini shakllantirish istiqbollari tahlil qilingan. Muallif tomonidan tergov va tezkor-qidiruv instrumentlarining o‘ziga xos xususiyatlari, afzalliklari va cheklovlari qiyosiy-huquqiy hamda funksional yondashuvlar asosida o‘rganilgan. Shuningdek, mazkur institutlarni universallashtirishga qaratilgan zamonaviy tendensiyalar, ularning ijobiy va salbiy oqibatlari, jumladan, protsessuallashtirishning kuchayishi, funksional o‘ziga xoslikning susayishi va huquqni qo‘llash amaliyotida yuzaga kelayotgan muammolar yoritilgan. Tadqiqot natijalari sud ishlarini yuritishda bilish va isbotlash faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida tezkor-qidiruv va tergov instrumentlarini takomillashtirish, shuningdek, ularning mazmunan integratsiyalashuviga asoslangan yangi huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish zarurligini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: tergov harakatlari, tezkor-qidiruv tadbirlari, tezkor-qidiruv faoliyati, jinoyat protsessi, isbotlash, dalillar, integratsiyalashuv, universallashtirish, tezkor-tergov instrumenti.

**ИНТЕГРАЦИЯ ОПЕРАТИВНО-РОЗЫСКНЫХ МЕРОПРИЯТИЙ И
СЛЕДСТВЕННЫХ ДЕЙСТВИЙ: ПРАВОВЫЕ И ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ
ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ «ОПЕРАТИВНО-СЛЕДСТВЕННОГО»
ИНСТРУМЕНТА**

Аннотация: В данной статье проанализированы процессы интеграции следственных действий и оперативно-розыскных мероприятий, трансформация их функционально-правовой природы, а также перспективы формирования единого «оперативно-следственного» инструментария. Автором исследованы особенности, преимущества и ограничения следственного и оперативно-розыскного инструментария на основе сравнительно-правового и функционального подходов. Кроме того, рассмотрены современные тенденции, направленные на универсализацию данных институтов, а также их положительные и отрицательные последствия, включая усиление процессуализации, ослабление функциональной специфики и проблемы,



Date: 27th June-2026

возникающие в правоприменительной практике. Результаты исследования обосновывают необходимость совершенствования оперативно-розыскного и следственного инструментария в целях повышения эффективности познавательной и доказательственной деятельности в уголовном судопроизводстве, а также разработки новых правовых механизмов, основанных на их содержательной интеграции.

Ключевые слова: следственные действия, оперативно-розыскные мероприятия, оперативно-розыскная деятельность, уголовный процесс, доказывание, доказательства, интеграция, универсализация, оперативно-следственный инструментарий.

INTEGRATION OF OPERATIONAL-SEARCH MEASURES AND INVESTIGATIVE ACTIONS: LEGAL AND FUNCTIONAL FOUNDATIONS FOR THE FORMATION OF AN “OPERATIONAL-INVESTIGATIVE” INSTRUMENT

Abstract: This article analyzes the processes of integration between investigative actions and operational-search measures, the transformation of their functional and legal nature, as well as the prospects for the formation of a unified “operational-investigative” instrumentarium. The author examines the distinctive features, advantages, and limitations of investigative and operational-search instruments through comparative-legal and functional approaches. Furthermore, the study explores contemporary trends aimed at the universalization of these institutions, together with their positive and negative consequences, including the intensification of proceduralization, the weakening of functional specificity, and the challenges arising in law-enforcement practice. The findings substantiate the necessity of improving both operational-search and investigative instruments in order to enhance the effectiveness of cognitive and evidentiary activities within criminal proceedings, as well as to develop new legal mechanisms based on their substantive integration.

Keywords: investigative actions, operational-search measures, operational-search activity, criminal procedure, proof, evidence, integration, universalization, operational-investigative instrumentarium.

Bir necha marta ta’kidlaganimizdek², zamonaviy jinoiy sud ishlarini yuritishning maqsadlariga erishish ikki turdagi instrumentlar tizimi yordamida to’laonli ta’minlanadi.

² *Raximxo’jayev R.N.* Tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining rivojlanish konsepsiyasi va istiqbollari // <https://doi.org/10.5281/zenodo.20617885>; *Raximxo’jayev R.N.* Tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan jinoyat protsessida foydalanish institutini yanada takomillashtirish istiqbollari // Modern education and development. Volume 5, Issue 27 July, 2024. B. 63-79; *Raximxo’jayev R.N.* Tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining genezisi va rivojlanish istiqbollari // Huquqiy tadqiqotlar jurnali – T., 2025. – 10-jild 5/2-son. B. 92-101.



Date: 27th June-2026



Birinchidan, bevosita jinoyat-protsessi (tergov) instrumenti bo‘lib, u barcha tergov harakatlarini o‘z ichiga oldi. Shuningdek, unga tergov harakatlaridan mustaqil va alohida protsessual harakatlar ham kiritilishi mumkin. Ular tergov harakatlaridan mustaqil bo‘lishiga qaramay, muayyan holatlarda yordamchi vazifani bajaradi hamda ularning samaradorligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, tezkor-qidiruv instrumenti bo‘lib, u “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunning 14-moddasida qat‘iy va to‘liq tarzda ko‘rsatib o‘tilgan tezkor-qidiruv tadbirlaridan tashkil topadi.

Shubhasiz, har ikki instrument ham sud ishlarini yuritishning yakuniy maqsadlariga erishishga qaratilgan bo‘lib, bilishning o‘xshash usullariga, ya‘ni axborotni olish, qayd etish va baholashga asoslanadi. Ularning ayrimlari ko‘p hollarda aynan bir xil maxsus sub‘ekt tomonidan amalga oshiriladi. Biroq shu bilan birga, har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, bir-biridan farq qiladi. Bu o‘ziga xoslik esa jarayon ishtirokchilarining sub‘ektiv xohish-istaklari bilan emas, balki sud ishlarini yuritish instituti oldida turgan vazifalarni hal etishning ob‘ektiv zarurati bilan belgilanadi.

Shuni aniq tushunish lozimki, har ikki instrumentning funksional o‘ziga xosligi, hamda undan kelib chiqadigan maxsus xususiyatlari va afzalliklari birinchi navbatda, ularning maqsad va vazifalari turlicha ekanligi bilan izohlanadi. Bu holat, umuman olganda, har qanday instrument va ixtisoslashuv uchun xos xususiyat hisoblanadi.

Ko‘rib chiqilayotgan har bir instrument sud jarayoniga boshqasi taqdim eta olmaydigan imkoniyatlarni beradi. Biroq ayni paytda ayrim sifatlardan voz kechishga ham majbur bo‘ladi. Protsessual instrument uchun bunday cheklov, avvalo, yashirin/maxfiy tarzda faoliyat yuritish imkoniyatining mavjud emasligi, shuningdek, harakatlarni amalga oshirishda o‘zgaruvchanlikning yo‘qligi (ma‘lum bir majburiyat, qoliplashganlik, izchillik va harakatlar davomiyligi). Tezkor-qidiruv instrumenti uchun esa olingan natijalarning isbotlash nuqtai nazaridan ma‘lum darajada cheklanganligi, ayrim hollarda esa ularni sudga taqdim etishning umuman mumkin emasligi xosdir. Mazkur holatlarni bilish har ikki instrumentning o‘ziga xos jihatlari, afzalliklari va kamchiliklarini to‘g‘ri baholashning muhim kafolati hisoblanadi. Umuman olganda esa, bu ularning hozirgi holati, maqomi va huquqiy tabiatidagi betakrorligi hamda o‘rnini boshqa instrumentlar bilan to‘ldirib bo‘lmasligini anglashga xizmat qiladi.

Mavjud protsessual va tezkor-qidiruv instrumentlari, albatta, mutlaq darajada mukammal emas, ammo yetarlicha samarali hisoblanadi. Shu bilan birga, ular statik va o‘zgarmas tizim ham emas. Tergov hamda tezkor-qidiruv instrumentlarini takomillashtirishga qaratilgan urinishlar doimiy ravishda amalga oshirilib kelmoqda va bu Jinoyat-protsessual kodeksi hamda “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi qonunga qo‘shimcha va o‘zgartishlar kiritgan ko‘plab qonunlarda o‘z aksini topgan.

Biroq mazkur o‘zgarishlarning barchasi, ko‘rinib turibdiki, asosan tahririy xususiyatga ega bo‘lib, ular tergov harakatlari yoki tezkor-qidiruv tadbirlari tizimiga prinsipial ta‘sir ko‘rsatmagan. Ayrim “instrumentlar”ga yangi xususiyatlar berilishi (masalan, tergov harakatlarida xolislarining majburiy ishtirokidan voz kechilishi yoki

Date: 27th June-2026



yashirin tezkor-qidiruv tadbirlari natijalaridan sud jarayonida foydalanish imkoniyatining yaratilishi) shubhasiz inqilobiy va amaliy ahamiyat kasb etgan bo'lsa-da, ular mazkur instrumentlarning umumiy tabiati va asosiy xususiyatlarini keskin o'zgartira olmadi. Natijada, tergov instrumenti tergovga xos xususiyatlarini saqlab qolgan bo'lsa, tezkor-qidiruv instrumenti ham o'zining tabiatini saqlab qoldi.

Biroq modernizatsiya qilishga qaratilgan urinishlar to'xtagani yo'q. Yaqin va uzoq xorijdagi ayrim davlatlar tajribasi jinoyat protsessi hamda tezkor-qidiruv instrumentlarini takomillashtirishning real imkoniyatlari va istiqbollarini yaqqol namoyon etmoqda. Huquqiy jihatdan rivojlangan qator davlatlarda mazkur faoliyat turlarining shunchaki muvofiqlashtirish emas, balki ularning o'zaro integratsiyalashuvi va chuqur o'zaro bog'liqligi masalasi ilgari surilmoqda³.

Biroq, hozirgi O'zbekiston tendensiyalari shundayki, ushbu instrumentning har birining foydalanuvchilari va tarafdorlari (huquqshunoslar, qonun chiqaruvchilar, huquqni qo'llovchilar) o'rtasidagi ambitsiyali, ko'pincha sub'ektiv tusga ega bo'lgan qarama-qarshilik jarayonida. Shuningdek har birining ustuvorligi va alohidaligini isbotlashga qaratilgan ko'p yillik uzluksiz urinishlar sharoitida. Mazkur instrumentlar (ham tergov harakatlari, ham tezkor-qidiruv tadbirlari) o'ziga qarshi qo'yilayotgan talablarga moslashishga intilib, "qo'pol" va soddalashtirilgan tarzda qayta ishlanib, sud ishlarini yuritishning ham tezkor, ham tergov funksiyalarini o'zida mujassam etgan universal instrument ko'rinishiga keltirilmoqda.

Biroq! Kognitiv xarakterga ega tezkor-qidiruv yoki protsessual instrumentlarning eng yangi, ikki tomonlama maqbul shaklini izlash jarayonida innovatsiya qiluvchilar ko'p hollarda ularning faoliyatdagi o'ziga xosligini belgilab beruvchi mohiyatni unutib qo'yadilar yoki ongli ravishda undan voz kechadilar. Natijada, ko'p yillik amaliyotda takomillashtirilgan, ratsionallashtirilgan pragmatik bilish vositalari jinoyat protsessi hamda tezkor-qidiruv faoliyatida keng qo'llanilishi mumkin bo'lgan "normativ va funksional jihatdan xom" prototiplarga aylantirilmoqda. Universallik⁴, ya'ni bir vaqtning o'zida keng doiradagi talablarga mos kela olish, turli (ba'zan esa to'g'ridan-to'g'ri qarama-qarshi) vazifalar, harakatlar va funksiyalarni bajarish qobiliyati sifatida, faqat ijobiy (ko'p hollarda shartli) xususiyatlarga emas, balki, odatda, muayyan darajada sezilarli kamchiliklarga ham ega bo'ladi.

Fikrimizcha, bunday o'zgartirishning kamchiliklari (mazkur holatda o'zgartirishlarning o'ziga emas, balki ularning shakliga qo'shilmaymiz) afzalliklaridan deyarli ko'proq bo'lib, ularning yakuniy qiymati va pragmatik ahamiyati katta shubha va savol ostida qolmoqda.

Har qanday instrument va ijtimoiy faoliyat turining genezisini ko'rib chiqar ekanmiz, vositalar, instrumentlar (ularni qo'llash texnologiyalari va usullari majmuasi

³ Маркушин А.Г. Оперативно-розыскная деятельность: учебник для вузов / 2-е изд., перераб. и доп. Москва: Юрайт, 2013. С. 156 (399 с.).

⁴ Universal: 1) ko'p yoki hamma narsani o'z ichiga qamrab olgan; har taraflama; 2) bir necha xil ishni bajarishga moslangan. <https://izoh.uz/uz/word/universal>.

Date: 27th June-2026



sifatida) hamda ularni bevosita qo'llovchi sub'ektlarning maqsad va vazifalarga, shuningdek ular amalga oshiriladigan shart-sharoit va vaziyatlarga qarab bosqichma-bosqich ixtisoslashib borishini qat'iy ravishda qayd etish mumkin. Bu holat ob'ektiv ravishda zarur xususiyatlarni ajratib olish va keyinchalik ularni muayyan faoliyat turi uchun xos bo'lgan zaruriy xususiyatlar sifatida maqsadli ravishda shakllantirish imkonini bergan.

Bu yerda kengroq (umumqamrovli) ahamiyatga ega bo'lgan eng muhim jihatga e'tibor qaratmoqchimiz. Universallashtirishga nisbatan muvaffaqiyatli (odatda kam uchraydigan) urinishlar shakllarni oddiy va sodda tarzda qo'shish xarakterida emas, balki sifat ko'rsatkichlarini integratsiya qilish darajasidagi "mazmunli" simbioz ko'rinishida bo'lgan. Fikrimizcha, ushbu qarashni to'laqonli ravishda sud jarayonlarining bilish instrumentlarining hozirgi holatiga ham, ularni optimallashtirish jarayoniga (yoki yagona tizim yaratish masalasiga) ham to'liq tatbiq etish mumkin.

Kasb va faoliyat turlarining tobora ko'proq ixtisoslashuvi, o'z oqibatlarining ijtimoiy jihatdan yanada muhimroq ahamiyat kasb etishi bilan birga, hayot faoliyatining barcha sohalarida tibbiyot, muhandislik, savdo, huquqshunoslik va boshqa ko'plab yo'nalishlarda funksional jihatdan kuzatilgan va kuzatilmoqda. Dastlab funksional jihatidan yagona bo'lgan "umumiy amaliyot shifokori" vaqt o'tishi bilan terapevt, jarroh, stomatolog, kardiolog, anesteziolog va boshqa mutaxassisliklarga ajralib chiqdi. Bu esa muayyan faoliyat yo'nalishlariga chuqurroq ixtisoslashish, ularda rivojlanishga erishish hamda har bir soha uchun o'ziga xos instrumentni shakllantirish imkonini berdi. Xuddi shu kabi, huquqni qo'llovchilar ham vaqt o'tishi bilan umumiy huquqni muhofaza qilish faoliyatidan alohida yo'nalishlarga ajralib chiqdilar, ya'ni patrul-post xizmati, jinoyat qidiruv xizmati, profilaktika xizmati, tergov, konvoy bo'linmalari va boshqa tuzilmalar.

Biz ko'rib chiqayotgan, ilgari yagona tizim sifatida faoliyat yuritgan bo'linmalar bugungi kunda funksional jihatdan shaxsga qarshi qaratilgan jinoyatlar, mulkiy turdagi jinoyatlar, korrupsiya va iqtisodiy jinoyatlarni fosh etish, qidiruv ishi va boshqa yo'nalishlar bo'yicha ixtisoslashtirilgan tuzilmalarga ajratilgan. Jinoyat turlarining tobora ko'payib va murakkablashib borishi sharoitida huquqni muhofaza qiluvchi organlardagi kasbiy ixtisoslashuvlar soni kelajakda yanada ortishi ehtimoli yuqori. Shu bilan birga, turli maqsad va vazifalar turlicha instrumentni (funksiyani) talab qiladi. Jadal texnologik taraqqiyot esa, jumladan, ko'plab huquqiy o'zgarishlarni ham qamrab olgan holda, mazkur instrumentlar o'rtasidagi mavjud ziddiyatlarni yanada kuchaytirmoqda va oqibatda umumiy samaradorlikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada, ham tergov instrumenti, ham tezkor-qidiruv instrumenti bugungi kunda o'z oldiga qo'yilgan pirovard maqsadlarga samarali va qonuniy tarzda erishish jarayonida muayyan qiyinchiliklarga duch kelmoqda.

Shu bois, protsessual va tezkor-qidiruv instrumentlarning bugungi holatini chuqur funksional-huquqiy jihatdan qayta ko'rib chiqish hamda ularni takomillashtirish zarurati yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bu o'zgarishlar tergov harakatlari va tezkor-qidiruv tadbirlariga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish bilan bog'liq, avval ham ko'p bor qayd etilgan muammolarni hal qilish, tezkor-qidiruv faoliyati natijalarini sudga taqdim etish va

Date: 27th June-2026



ularga dalil sifatida huquqiy baho berish masalalarini samarali hal etish imkonini berishi lozim. Yoki boshqa yo'l sifatida, zarurat tug'ilganda ham tezkor-qidiruv faoliyati, ham jinoyat protsessiga xos xususiyatlarni, maxfiylik (konspiratsiya), amalga oshirish usullarining o'zgaruvchanligi, oqilona protsessual tartib va rasmiylashtirish standartlari, daliliy salohiyat va boshqa muhim jihatlarni o'zida mujassam etgan yagona **"tezkor-tergov"** instrumentini yaratish mumkin. Universallashtirishning poydevori har ikki instrumentning ayrim tashqi belgilari emas, balki ularning sifat va mohiyatni belgilovchi xususiyatlari bo'lishi lozim. Shu bois, universallashtirish shakllarning oddiy qorishtirilishi emas, balki mazkur xususiyatlarning mazmunan integratsiyalashuviga asoslanishi kerak.

Avval qayd etilganidek, hozirgi vaqtda sud ishlarini yuritish sohasida shunday ob'ektiv ijtimoiy-huquqiy vaziyat shakllanganki, o'zgargan ob'ektiv sharoitlar va talablar fonida tezkor-qidiruv hamda tergov instrumentlarining funksional va shakliy tarkibiy qismlari majburiy ravishda aralashib ketishi kuzatilmoqda. Shu tariqa, huquqni qo'llash amaliyoti vakillari eskirgan jinoyat-protsessual va tezkor-qidiruv normalari bilan ularni amaliy qo'llashning o'zgargan real sharoitlari o'rtasida yuzaga kelgan nomutanosiblik va ziddiyatni hech bo'lmaganda ma'lum darajada yumshatishga harakat qilmoqdalar.

Biroq qonun chiqaruvchi va huquqni qo'llovchilarning ezgu maqsadlari, shuningdek amaldagi voqelik ta'siri ostida tezkor-qidiruv faoliyati va jinoyat protsessi instrumentlariga kiritilayotgan alohida hamda ko'pincha tizimlashtirilmagan funksional-huquqiy o'zgartishlar ularni qarama-qarshi instrumentga xos kutilgan sifatlar bilan boyitishdan ko'ra, aksincha, ularning funksional o'ziga xosligini susaytirmoqda. Masalan, ayrim tergov harakatini o'tkazishda xolislar ishtirokining majburiy emasligi uni to'g'ridan-to'g'ri tezkor-qidiruv tadbiriga, ya'ni tezkor-qidiruv faoliyatiga xos bo'lgan yuqori darajadagi o'zgaruvchan salohiyatga ega vositaga aylantirmaydi. Xuddi shuningdek, tezkor-qidiruv tadbirining protsessual hujjatlarga yaqin tarzda rasmiylashtirilishi ham unga tergov harakatiga xos bo'lgan daliliy maqomni bermaydi.

Ko'rinib turibdiki, amalga oshirilgan sa'y-harakatlar kutilgan natijalarni bermayapti va umidlarni oqlamayapti, bu esa vaziyatning amalda o'zgarishsiz, ya'ni *"Status quo ante"*⁵ holatida saqlanib qolishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga, bir instrumentga boshqasining mohiyatga xos maxsus xususiyatlarini singdirishga bo'lgan urinishlar natijasida har ikki instrumentning funksional o'ziga xosligi va noyobligi *"xiralashib"*, zaiflashib bormoqda.

Hozirgi vaqtda esa huquqshunos olimlar va amaliyot xodimlari jamiyat taraqqiyoti va texnik progress natijasida yuzaga kelgan muammolarga duch kelib, har ikki instrumentni takomillashtirishga (aniqrog'i, universallashtirishga) harakat qilmoqdalar. Biroq bu jarayon har bir instrumentni alohida holda ilmiy asoslangan va oqilona optimallashtirish (ya'ni mavjud sifatlarini rivojlantirish yoki yetishmayotgan xususiyatlar bilan boyitish) orqali ham, tergov va tezkor-qidiruv instrumentlarining betakrorligi hamda afzalliklarini o'zida mujassam etgan yangi tizimni sintez qilish orqali ham amalga

⁵ **Status quo ante** (lotincha) — "muayyan paytdagi holat" yoki "avvalgi mavjud bo'lgan holat" degan ma'noni anglatadi // https://uz.wikipedia.org/wiki/Status_quo.

Date: 27th June-2026



oshirilmayapti. Aksincha, ular bir instrumentning tashqi belgilari va xususiyatlarini ikkinchisidiki bilan qo‘pol tarzda “qo‘shish” yo‘lidan bormoqdalar. Bu esa faqatgina “tezkor-qidiruv tadbirlari va tergov harakatlarining samaradorligi past bo‘lgan sodda gibridi”ni — ilk boshidanoq funksional-huquqiy jihatdan samarasiz bo‘lgan mutant shakllarni vujudga keltirishi mumkin. Bundan tashqari, yuqorida qayd etilgan chora-tadbirlarni huquqiy va terminologik jihatdan yetarli darajada aniqlik ta‘minlanmagan sharoitda amalga oshirish mavjud qarama-qarshiliklarni yanada kuchaytirib, ularning keskinlashuviga olib kelmoqda.

Bunga hozirga qadar huquqiy yechimini topmagan, tezkor-qidiruv tadbirlari va tergov harakatlarining bir-biriga o‘xshash (amalda esa deyarli aynan bir xil) turlariga xos bo‘lgan “ikkilanma” huquqiy maqomlar yorqin misol bo‘la oladi. Jumladan, “telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so‘zlashuvlarni eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotni olish”, “shaxsning aynanligini aniqlash” va “Tanib olish uchun ko‘rsatish”, “predmetlarni va hujjatlarni tekshirish” va “ekspertiza”, shuningdek “pochta, kurerlik jo‘natmalari va telegraf xabarlarini nazorat qilish” hamda “pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlab qo‘yish” kabi institutlar shular jumlasidandir⁶.

Aslida bir xil funksional harakatlar (bir xil sharoitlarda amalga oshiriladigan va ba‘zan hatto bir xil sub‘ekt tomonidan bajariladigan harakatlar) o‘zining protsessual maqomi nuqtai nazaridan mutlaqo qarama-qarshi huquqiy tabiatga ega deb e‘tirof etilmoqda. Natijada esa ularning natijalari taraflar tomonidan muntazam ravishda bahs-munozaraga sabab bo‘ladi, o‘zaro kasbiy nokompetentlikda ayblashlar yuzaga keladi, tergov jarayoni yoki sudda ishni ko‘rib chiqish muddatlari sun‘iy ravishda cho‘zilib ketadi va boshqa shu kabi salbiy holatlar kelib chiqadi.

Fikrimizcha, sud ishlarini yuritish instrumentlarini optimallashtirishga qaratilgan urinishlar ko‘proq tezkor-qidiruv tadbirlariga yo‘naltirilgan. Buni qisman jinoyat protsessiga xos bo‘lgan an‘anaviy (garchi bahsli bo‘lsa-da) konservativlik va tezkor-qidiruv tadbirlarining qonunchilikda yetarlicha tartibga solinmaganligi bilan izohlash mumkin. Tergov harakatlari haqida esa bunday deyish mumkin emas. Biroq, o‘zgarishlar zarurligini tan olgan holda, olimlar ham, qonun chiqaruvchi ham hozircha mazkur muammoning eng maqbul yo‘l va yechimlarini topa olmayapti (yoki topishni istamayapti). V.V.Kalniskiy ta‘kidlaganidek, “yondashuvlardagi qarama-qarshiliklar sababli nazariya na qonun chiqaruvchiga, na sudga tezkor-qidiruv axborotlarining asosiy potensial foydalanuvchisi sifatida muvofiqlashtirilgan umumiy tavsiyalar bermagan”⁷.

Oqibatda, tezkor bo‘linmalar xodimlari mavjud, qisman eskirgan va shu bois to‘liq qonuniy bo‘lmagan tezkor-qidiruv instrumentini jadal rivojlanib borayotgan ijtimoiy-huquqiy va texnologik sharoitlarga “moslashtirishga” majbur bo‘lmoqdalar. Mazkur instrumentlarning huquqiy va funksional holati doimiy ravishda tanqid qilinmoqda

⁶ Павличенко Н.В., Самоделкин А.С. Негласность в оперативно-розыскной деятельности // Вестник Волгоградской академии МВД России. 2012. № 3 (22). С. 88–93.

⁷ Кальницкий В.В. Вопросы теории и практики уголовного судопроизводства: избранные труды. Омск: Омская академия МВД России, 2016. С. 71 (200 с.).

Date: 27th June-2026

(ko‘pincha ob‘ektiv va qonuniy). Bu holat esa ham olingan natijalarga, ham mavjud nomuvofiqliklar va ziddiyatlarning kelib chiqishida aybi bo‘lmagan, biroq mavjud vositalar bilan ishlashga majbur ijrochilar faoliyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Bir qarashda, protses maktabi vakillari formal jihatdan haqdek ko‘rinadi. Ular ta‘kidlashicha, “yuristlarning huquqiy ongi tezkor-qidiruv faoliyati (TQF) natijalarini dalil sifatida qabul qilishni istamaydi, chunki mazkur axborot huquqiy tabiati jihatidan boshqa turdagi faoliyat natijasida olinadi. Bu faoliyat jinoiy sud ishlarini yuritish bilan parallel ravishda mavjud bo‘lib, unga nisbatan mustaqil va teng maqomga ega hisoblanadi. Huquqiy tabiatlari turlicha bo‘lgan ekan, ularning natijalari ham huquqiy jihatdan turlicha bo‘ladi. Natijada huquqiy tabiati har xil bo‘lgan natijalardan boshqa faoliyat doirasidagi xulosalarni asoslash uchun foydalanish mumkin emas. Jinoiy sud ishlarini yuritish o‘zining konservativligi hamda protsessual tartib-qoidalarga qat‘iy bog‘liqligi (formal xarakteri) tufayli faqat mazkur protsessual tartib doirasida olingan ma‘lumotlarnigina dalil sifatida qabul qiladi”⁸. Bunday dalilni tezkor-qidiruv faoliyatining kognitiv imkoniyatlarini inkor etish, yagona instrumentni shakllantirishga qaratilgan keyingi urinishlardan (yoki mavjudlarini tubdan takomillashtirishdan) voz kechish va jinoyat protsessini isloh qilish imkoniyatini umuman rad etish uchun asos deb hisoblash mumkinmi? Mazkur fikr o‘zining ma‘lum darajada asoslilikiga qaramay, baribir bahsli ko‘rinadi.

Agar jinoyat protsessi haqiqatan ham keskin konservativ xususiyatga ega bo‘lganida, u holda hozirga qadar o‘z davri uchun an‘anaviy va konservativ hisoblangan protsessual qoidalarga amal qilinishi lozim bo‘lar edi. Biroq bugungi kundagi hech bir protsessualistning xayoliga bunday fikr kelmaydi, zero jamiyat va huquq allaqachon bunday bosqichni ortda qoldirib, o‘z taraqqiyotining yangi darajasiga ko‘tarilgan.

Xo‘sh, nima uchun kecha avvalgi kunning eskirib qolgan yondashuvlarini tan olishga va ulardan voz kechishga tayyor edik, bugun esa kechagi yondashuvlarni eskirgan deb e‘tirof etishdan qo‘rqmoqdamiz yoki bunga xohish bildirmayapmiz hamda yaqin kelajak istiqbolini hisobga olgan holda bugungi imkoniyat va yechimlarni qo‘llashga jur‘at etmayapmiz? Protsessual institutlarning vaqtga oid yoki boshqa qanday mezonlari mavjudki, ularni aniqlab va baholab chiqqanidan so‘ng huquqshunos olimlar mazkur institutlar (ya‘ni protsessual institutlar, prinsiplar va qoidalar) eskirgan yoki boshqa asoslarga ko‘ra bekor qilinishi, almashtirilishi, yangilanishi va takomillashtirilishi lozim degan xulosaga kelishlari mumkin?

Bunda gap jinoyat protsessi ijtimoiy-huquqiy fenomen sifatida erishgan barcha fundamental asoslar va yutuqlardan to‘liq va mutlaq voz kechish haqida emas, balki jamiyat va davlat hayotidagi ijtimoiy-huquqiy o‘zgarishlarga muvofiq ravishda mavjud instrumentni oqilona optimallashtirish haqida bormoqda. Mualliflar an‘anaviy protsessual va tezkor-qidiruv maktablari vakillari hamda ularning tarafdorlari uchun bunday darajadagi radikal o‘zgarishlar, shuningdek, o‘z fan sohalarida shakllangan fundamental tasavvurlar,

⁸ Баранов А.М. Использование результатов негласных способов собирания доказательств в уголовном судопроизводстве // Государство и право. 2007. № 8. С. 64.

Date: 27th June-2026

nazariy asoslar va bazaviy prinsiplarni qayta ko'rib chiqish yoki ulardan voz kechish ehtimolini anglash oson emasligiga qo'shiladilar⁹.

Fikrimizcha, hozirgi kunda jinoyat protsessi va tezkor-qidiruv faoliyati o'rtasidagi normativ-funksional chegarada yuzaga kelayotgan murakkab huquqiy vaziyatni quyidagilar orqali tavsiflash mumkin.

Birinchidan, tergov harakatlari tizimining rivojlanishi uni tezkor-qidiruv xususiyatiga ega bo'lgan bilish usullari bilan to'ldirishga qaratilgan¹⁰.

Bir qator olimlar mazkur g'oyani ilgari surib kelmoqda. Jumladan, A.Yu.Shumilov jinoyat-protsessual qonunchilikni takomillashtirishni taklif qilib, tergovchi tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo'lgan tergov-qidiruv (tergov-tezkor) harakatlarini nazarda tutishni ilgari surgan. Ular qatoriga quyidagilarni kiritgan:

shaxs faoliyati, moddiy ob'ekt va (yoki) joyni kuzatish (vizual, audio-, video va (yoki) elektron shaklda);

ommaviy kirish mumkin bo'lmagan joyni, shuningdek turar-joy yoki boshqa xususiy mulkni ko'zdan kechirish (tekshirish)

identifikatsiya qiluvchi (belgilangan) va (yoki) soxta (imitatsion) vositadan, shuningdek maxsus tayyorlangan predmet va (yoki) hujjatdan yoxud maxsus tashkil etilgan yuridik shaxsdan foydalanish;

konfidentlardan foydalanish;

elektron axborot tizimlari va (yoki) transport hamda telekommunikatsiya tarmoqlaridan maxsus texnik vositalar yordamida axborotni olish, shuningdek axborotni qayd qilish, saqlash va o'rganish (tadqiq etish);

radioelektron vositaning joylashgan joyini aniqlash¹¹.

Rossiya Federatsiyasining jinoyat-protsessual isbotlash huquqining doktrinal modelida yashirin (nooshkora) tergov harakatlarini joriy etish taklif qilingan. Daliliy ahamiyatiga ega bo'lgan axborotni oshkora tergov harakatlarini o'tkazish orqali olish imkoni mavjud bo'lmagan hollarda qo'llaniladigan, yashirin yoki shifrlangan vosita va usullarga asoslangan, jinoyat ishini yuritishning istalgan bosqichida, biroq sud majlisidan tashqari va manfaatdor shaxslarni xabardor qilmasdan, tergovchi tomonidan, shu jumladan niqoblangan agent ishtirokida amalga oshiriladigan harakatlar tushunilgan. Bunday harakatlar, odatda, og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlarni ochish va tergov qilish, jinoyatchini fosh etish, ayblovni asoslash hamda ayblanuvchiga nisbatan davlat ayblovinini qo'llab-

⁹ Кальницкий В.В. Вопросы теории и практики уголовного судопроизводства: избранные труды. Омск: Омская академия МВД России, 2016. С. 45 (200 с.).

¹⁰ Кальницкий В.В. Там же. С. 44 (200 с.).

¹¹ Шумилов А.Ю. Реформа уголовного процесса в России не завершена // Оперативник (сыщик). 2012. № 1 (30). С. 22–24.



Date: 27th June-2026

quvvatlash uchun zarur bo'lgan faktik materiallarni to'plash maqsadida tergov sudyasining qaroriga yoki prokuror sanksiyasiga asosan o'tkaziladi¹².

Yuqorida keltirilgan ayrim takliflarning bahsli xususiyatga ega ekanligiga qaramasdan, fikrimizcha, mazkur holat rivojlanishining gipotetik imkoniyati haqida emas, balki bugungi kundayoq faol kechayotgan real jarayon haqida so'z yuritish mumkin. Amalda ayrim tergov harakatlari allaqachon tezkor-qidiruv faoliyatining muayyan xususiyatlarini, ya'ni o'tkazish tartibining soddalashtirilganligi, tezkorligi va qisman nooshkoraligini o'zlashtirgan bo'lib, buni shubhasiz yutuq sifatida baholash lozim. Biroq mazkur yutuq yetarli darajada emas va mavjud muammoni to'liq bartaraf etmaydi. Shu bilan birga, ushbu o'zgarish tezkor-qidiruv tadbirlari funksiyalarining bevosita takrorlanishiga hamda kadrlar salohiyati va funksional-texnik imkoniyatlardan o'ta nooqilona foydalanilishiga olib keldi. Ya'ni, aynan shu bilishga oid vazifalarni hal etish uchun dastlab mo'ljallangan tezkor xodimlar va tezkor-qidiruv tadbirlari chetda qolmoqda, ular orqali olingan natijalar hanuzgacha yo'l qo'yib bo'lmaydigan deb baholanmoqda, o'nlab yillar davomida to'plangan tezkor tajriba hamda samarali taktikalar esa vaqt o'tishi va amalda qo'llanilmasligi natijasida asta-sekin yo'qolib bormoqda.

Xususan, JPKga ko'ra (169-m.), telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotni olishda nazarda tutilgan tergov harakatini amalga oshirish bo'yicha shakllangan zamonaviy amaliyot tezkor-qidiruv faoliyati uchun xos bo'lgan usul, metod va vositalarning jinoyat protsessiga amalda muvaffaqiyatli, qonuniy va samarali integratsiya qilinganligining yorqin dalili hisoblanadi.

Ayrim tergov harakatlarini o'tkazish amaliyotiga e'tibor qaratsak, uning bosqichlari nooshkora shaklda amalga oshirilayotganini ko'rishimiz mumkin. Masalan, JPKning (127-m.) shaxsni tanib olish uchun ko'rsatish tartibiga muvofiq shaxsni fotosurat bo'yicha yoki tanib oluvchini tanib olinuvchi shaxs vizual kuzata olmaydigan sharoitlarda tanib olish uchun ko'rsatish mumkin.

Bundan tashqari, JPKning (169¹-m.) telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turishni, ular orqali uzatiladigan axborotni olishni amalga oshirish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish tartibi, xususan, iltimosnomaning sudya tomonidan yakka tartibda ko'rib chiqilishi hamda sud majlisida ishtirok etuvchi shaxslar doirasining prokuror, tergovchi, surishtiruvchi bilan cheklanishi (bunda gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi hamda uning himoyachisi ishtirok etmaydi) ayrim tergov harakatlariga sanksiya berish jarayonining amalda nooshkora xususiyat kasb etishiga yo'l qo'yadi. Bu esa mazkur tergov harakatlarining majburiy bosqichi sifatida ularga avval faqat tezkor-qidiruv faoliyatiga xos bo'lgan konspirativlik

¹² Доктринальная модель уголовно-процессуального доказательственного права Российской Федерации и комментарии к ней / под ред. А.С.Александрова. Москва: Юрлитинформ, 2015. 304 с.

Date: 27th June-2026

belgilarini baxsh etadi va “oshkoralikning butun jinoyat protsessi uchun asosiy konstitutsiyaviy prinsip sifatidagi maqomini zaiflashtiradi¹³.

Natijada, axborot to‘plash va aniqlash imkoniyatlari o‘xshash, resurs sarfi jihatidan taqqoslanadigan, ammo natijalarining daliliy qiymati va isbotlash istiqbollari bahsli bo‘lgan ikki xil (tezkor-qidiruv va tergov) instrumentning o‘zaro raqobatlashuvi yuzaga keladi. Oqibatda, protsessual instrumentlar tizimi hali-hamon tezkor-qidiruv faoliyatiga xos bo‘lgan tezkorlik va nooshkoralik xususiyatlariga ega emas (shuning uchun ularni amalga ham oshira olmaydi). O‘z navbatida, tezkor-qidiruv instrumenti esa asta-sekin o‘z ahamiyati va samaradorligini yo‘qotib bormoqda, amaliyotda kamroq qo‘llanilmoqda hamda shu bilan birga to‘plangan tajriba va samaradorlikning pasayishiga olib kelmoqda.

Ko‘rib chiqilayotgan masala doirasida ayrim tergov harakatlarini xolislar ishtirokisiz o‘tkazish huquqining qonunchilikda mustahkamlangani alohida qiziqish uyg‘otadi hamda muhim va istiqbolli yondashuv sifatida namoyon bo‘ladi. Yaqin vaqtgacha bunday tartib faqat tezkor-qidiruv tadbirlariga xos bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi kunda u tergov harakatlariga ham tatbiq etilmoqda. Bu esa tergov harakatlariga tezkor-qidiruv faoliyatining ayrim xususiyatlarini, masalan, tezkorlik va ularni o‘tkazishning nisbatan soddalashtirilgan tartibini ko‘rsatmoqda.

Fikrimizcha, mazkur yondashuv tezkor-qidiruv tadbirlari va tergov harakatlari o‘rtasidagi yana bir muhim farqni ularning bilish (axborotni aniqlash va to‘plash) va isbotlashga oid mohiyatiga hech qanday zarar yetmaydi. Olimlar tomonidan tergov harakatlarini amalga oshirishda xolislar ishtirokining nazariy va amaliy muammolari tahlil qilingan hamda xolislar institutidan qonunchilik darajasida voz kechish imkoniyati va istiqbollari haqida asoslangan fikrlar bildirilgan edi¹⁴.

Bu esa, umuman olganda, tahlil qilinayotgan masalaning asosli ekanligini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, qonun chiqaruvchi tomonidan tergov harakatlarida xolislar ishtirokidan qisman voz kechishga oid yondashuv normativ-huquqiy jihatdan o‘ta nomuvofiq tarzda tartibga solingan bo‘lib, uni huquqni qo‘llash amaliyotiga implementatsiya qilish hamda keyinchalik huquqiy baholash bilan bog‘liq qator savollarni yuzaga keltirmoqda. Ayni paytda esa mohiyatan bunga mutlaqo qarama-qarshi bo‘lgan yondashuv, tezkor-qidiruv tadbirlariga xolislar institutini majburiy tarzda joriy etish talabi tobora ko‘proq va qat’iyroq ilgari surilmoqda. Natijada, tezkor-qidiruv amaliyoti ham bunday sharoitlarga moslashishga majbur bo‘lmoqda. Ta’kidlangan holatlar shuni yaqqol tasdiqlaydiki, instrumentlarni bunday shaklda universallashtirish dastlab ularni

¹³ Ўзбекистон Республикасининг жиноят-процессуал кодекси (19-м. 10-қ.) // <https://lex.uz/docs/111460>.

¹⁴ Тамбовцев А.И., Павличенко Н.В. Оперативно-розыскные мероприятия и следственные действия, требующие судебного санкционирования: вопросы соотношения // Вестник Калининградского филиала СПбУ МВД России. 2017. № 3 (49). С. 7–10; Тамбовцев А.И. Генезис социально-правового института понятий: история, тенденции, перспективы // Вестник СПбУ МВД России. 2018. № 1 (77). С. 81–85.



Date: 27th June-2026

optimallashtirishga qaratilgan bo'lsa-da, u muayyan salbiy oqibatlarni ham keltirib chiqaradi. Bu oqibatlar kutilgan ijobiy samarani sezilarli darajada pasaytiradi hamda har bir instrumentning o'ziga xos imkoniyatlari va salohiyatining to'liq namoyon bo'lishiga to'sqinlik qiladi.

Ikkinchidan, tergov harakatlarining evolyusiyasi ularning turlarini kengaytirish va protsessual shaklini takomillashtirish tendensiyasi bilan tavsiflanadi. Mazkur jarayon voqelikni bilishning yangi usullari, fan-texnika taraqqiyoti, kriminalistik taktika sohasidagi yutuqlar, shuningdek, jinoyat protsessi ishtirokchilarining konstitutsiyaviy hamda boshqa qonuniy huquqlarini yanada to'liq ta'minlash zarurati bilan belgilanadi¹⁵. Mazkur fikrni tezkor-qidiruv tadbirlariga nisbatan ham to'liq tatbiq etish zarur, deb hisoblaymiz. Shuni tan olish kerakki, mazkur jarayon qisman shaxs va jamiyat hayotning turli jabhalarini rivojlantirishning ob'ektiv sabablari, voqelikni bilish instrumentlari va usullarining kengayishi bilan bog'liq.

Materiallarning yangi turlari paydo bo'lishi va o'zgarishi, axborotni saqlash hamda uzatish texnologiyalarining takomillashuvi, mulk shakllarining ko'payishi va boshqa shu kabi jarayonlar muqarrar ravishda tegishli, yanada ixtisoslashgan protsessual (shuningdek, tezkor-qidiruv, kriminalistik, maxsus texnik va boshqa) instrumentning rivojlanishi va qo'llanilishini taqozo etadi, hatto talab qiladi.

Biroq shuni tan olish lozimki, alohida tergov harakatining bilish imkoniyatlari shubhasiz kengayishi bilan bir qatorda, bu holat mustaqil tergov harakatlari sonining asossiz ravishda ortishiga ham olib kelmoqda. Natijada ularning har biri uchun jinoyat-protsessual qonunchilikda alohida moddalar, ko'p sonli (ayrim hollarda bir-birini takrorlovchi) tartiblar va protsessual shakllar nazarda tutiladi. Fikrimizcha, bu esa butun sudga qadar ish yuritishni sezilarli darajada murakkablashtirishdan boshqa natija bermaydi.

Bundan tashqari, fikrimizcha, ko'rib chiqilayotgan tendensiya salbiy xususiyatga ega bo'lib, o'z tabiati va bilishning asosiy usullari jihatidan bir xil bo'lgan "o'xshash" tergov harakatlari (shuningdek, tezkor-qidiruv tadbirlari) turlarining asossiz ravishda, amalda chegarasiz darajada ko'payishiga olib keladi. Xususan, bugungi kunda mavjud bo'lgan "umumiy xususiyatga ega" tergov harakati, masalan, "Ko'zdan kechirish" va "Murdani ko'zdan kechirish" ma'lum vaqt o'tgach yanada batafsillashtirilgan bir qator mustaqil tergov harakatlari bilan to'ldirilishi mumkin. Jumladan, "Avtomobilni ko'zdan kechirish", "Qurolni ko'zdan kechirish", "Hujjatlarni o'zdan kechirish" kabi harakatlar ajratib ko'rsatilishi ehtimoldan xoli emas. Keyinchalik esa ushbu tergov harakatlari ham yanada torroq ixtisoslashgan turlarga bo'linishi mumkin. Shubhasiz, bunday yondashuv maqsadga muvofiq emas. Mazkur rivojlanish modeli samaradorligi, barqarorligi va istiqbolliligi nuqtai nazaridan jiddiy munozaralarga sabab bo'ladi.

Tezkor-qidiruv faoliyati avvalroq shunga o'xshash "funktsionalning normativ jihatdan cheklanganligi" muammosiga duch kelgan edi. Bunda mavjud instrumentlardan

¹⁵ Кальницкий В.В. Вопросы теории и практики уголовного судопроизводства: избранные труды. Омск: Омская академия МВД России, 2016. С. 76 (200 с.).



Date: 27th June-2026



biri (qonunda nazarda tutilgan tezkor-qidiruv tadbirlaridan biri) o'zining bevosita, ammo nisbatan kengroq maqsadi uchun qo'llanilishi mumkin emas. Masalan, huquqiy norma shakllantirilishi jarayonida mazmuni tor doirada belgilanganligi sababli, "shaxsning aynanligini aniqlash" tezkor-qidiruv tadbiridan predmetning aynanligini aniqlash maqsadida foydalanish mumkin emas. Natijada huquqiy bo'shliq mavjudligini qayd etish mumkin. Tergov va tezkor-qidiruv instrumentlarining keyingi evolyusiyasi ularning to'g'ridan-to'g'ri qo'llanilishini yanada qiyinlashtirishi va natijada dastlab ko'zlangan funksional maqsadining tobora cheklanishiga olib kelishi mumkin.

Uchinchidan, olimlar tomonidan isbotlash jarayonining tabiatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi va inkor etib bo'lmaydigan omil sifatida qayd etilishicha, "an'anaviy tergov harakatlarining ayrim jihatlariga ortiqcha protsessuallashtirish xos bo'lib"¹⁶, bu ularni o'tkazish tartibini cho'zib yuboradi va murakkablashtiradi. Tergov harakatlari "dalillarni to'plashning asosiy usuli, demak, jinoyat ishi bo'yicha haqiqatni aniqlashning ham asosiy vositasi hisoblanishi"¹⁷ inobatga olgan holda, ularni odil sudlovning muhim protsessual instrumenti sifatida baholash mumkin.

Shu bois, qo'shimcha protsessuallashtirishga qaratilgan mazkur yondashuvlar (muallif fikricha, mutlaqo zaruratsiz) tergovchining bilish va isbotlashga doir instrumentlarga ortiqcha ta'sir ko'rsatish sifatida baholanishi lozim. Bunday yondashuv tergovchining bilish, isbotlash, huquqlarni himoya qilish va boshqa har qanday faoliyat samaradorligini oshirishga bo'lgan intilish bilan izohlanadi. Biroq bu yerda amaliyotning muhim bir ogohlantirishini yodda tutish lozim. Bunday "ratsionallashtirish" xodimning ish usullarini belgilab beruvchi instrumentlarga tobora ko'proq qaram bo'lib qolishiga olib kelishi mumkin. Natijada esa ish usullarining ko'zlangan maqsadlardan uzoqlashishi yanada kuchayadi¹⁸.

Natijada ijrochi bevosita vazifalarini bajarishdan, ya'ni mavjud instrument yordamida voqelikni anglash va o'rganishdan (dalillarni izlash va boshqalardan) ko'ra, ko'proq "instrumentlarga xizmat ko'rsatish" bilan band bo'lib qoladi. Bunda u tergov harakatini tayyorlash, o'tkazish va rasmiylashtirishga oid ko'plab formal, ayrim hollarda esa mutlaqo mantiqsiz bo'lgan protsessual talablarni bajarishga majbur bo'ladi.

Boshqa tomondan, instrumentga nisbatan haddan tashqari ko'p talablarning mavjudligi ularni so'zma-so'z va to'liq bajarishni murakkablashtiradi. Bu esa ayrim protsessual talablarga rioya etilmasligi ehtimolini oshiradi. Natijada bunday holatlar "protsessual qoidabuzarlik" sifatida baholanib, olingan natijalarni haqiqiy (yuridik kuchga ega) emas deb topishga asos bo'lishi mumkin. Amalda esa hozirgi vaqtda himoya tomoni aynan shu holatdan tez-tez foydalanmoqda. Shubhasiz, "protsedura" muayyan harakatlarni

¹⁶ Кальницкий В.В. Вопросы теории и практики уголовного судопроизводства: избранные труды. Омск: Омская академия МВД России, 2016. С. 79 (200 с.).

¹⁷ Смирнов А.В., Калининский К.Б. Уголовный процесс: учебник для вузов / под общ. ред. А. В. Смирнова. Санкт-Петербург: Питер, 2004. С. 385.

¹⁸ Тадеуш Котарбиньский. Трактат о хорошей работе. Москва: Экономика, 1975. С. 188–196 (249 с.).

Date: 27th June-2026



amalga oshirish va qarorlar qabul qilishning rasmiy tartibi sifatida jinoyat protsessining fundamental asoslaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, protsessuallashtirish jarayoni ham ratsional chegaralar doirasida bo'lishi zarur. Aks holda, u o'zining asl maqsadidan chekinib, "protsedura uchun protsedura" tamoyili ustuvor bo'lgan protsessual absurd holatini yuzaga keltirishi mumkin.

Huquqni qo'llash amaliyoti ko'rsatishicha, tergov harakatlari va tezkor-qidiruv tadbirlarining qo'shimcha protsessuallashtirilishi ularning natijaviyligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi hamda har ikki institutning samaradorligini pasaytiradi. Shu munosabat bilan, mazkur yondashuvni amaliyotga tatbiq etish va jinoyat protsessi va tezkor-qidiruv faoliyatining yangi instrumentlarini yaratish jarayonida alohida ehtiyotkorlikka amal qilish zarur.

To'rtinchidan, "tezkor-qidiruv tadbirlarining amalda tergov harakatlariga aylanib borish tendensiyasi yaqqol ko'zga tashlanmoqda"¹⁹. Bir tomondan, bu holat ularning natijalaridan isbotlash jarayonida tobora keng va ko'p qirrali tarzda foydalanilayotganida namoyon bo'lsa, ikkinchi tomondan, tezkor-qidiruv tadbirlariga tergov harakatlariga o'xshab tayyorgarlik ko'rish, o'tkazish va rasmiylashtirishning aniq protsessual tartiblari bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilayotganida o'z ifodasini topmoqda.

Haqiqatdan ham, XX asrning ikkinchi yarmida tasavvur qilib bo'lmaydigan holat, ya'ni nooshkora tezkor-qidiruv tadbirlari (masalan, telefon so'zlashuvlarini eshitish, nazorat ostida olish, tezkor eksperiment yoki tezkor kuzatuv) natijalaridan dalil sifatida foydalanish bugungi kunda tergov va sud amaliyotida keng tarqalgan ijobiy tajribaga aylanmoqda. Bunday materiallarning maxfiylik darajasini bekor qilish va jinoyat protsessiga taqdim etish tartibi ishlab chiqilgan, amaliyotda sinovdan o'tkazilgan, takomillashtirilgan hamda qonuniy jihatdan mustahkamlangan.

Hozirgi vaqtda mazkur masala "Tezkor-qidiruv tadbirlarini tashkil etish, o'tkazish, rasmiylashtirish va natijalarini taqdim etish to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida"gi qaror bilan tasdiqlangan yo'riqnoma hamda "Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirishda inson huquqlari va erkinliklariga doir konstitutsiyaviy normalarni ta'minlash to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan "Konstitutsiyaviy huquqlarni cheklash bilan bog'liq tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazishning vaqtinchalik tartibi"da²⁰ yetarlicha batafsil

¹⁹ Кальницкий В.В. Вопросы теории и практики уголовного судопроизводства: избранные труды. Омск: Омская академия МВД России, 2016. С. 44 (200 с.).

²⁰ O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Prezident Davlat xavfsizlik xizmati, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Mudofaa vazirligi, Davlat bojxona xizmati va Elektron texnologiyalarini rivojlantirish markazining 2021 yil 31 avgustdagi "Tezkor-qidiruv tadbirlarini tashkil etish, o'tkazish, rasmiylashtirish va natijalarini taqdim etish to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida"gi qarori; O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Bosh prokuraturasi, Davlat xavfsizlik xizmati, Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Mudofaa vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasi va Elektron texnologiyalarini rivojlantirish markazining 2023 yil 27 maydagi "Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirishda inson huquqlari va erkinliklariga doir konstitutsiyaviy normalarni ta'minlash to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan "Konstitutsiyaviy huquqlarni cheklash bilan bog'liq tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazishning vaqtinchalik tartibi".

Date: 27th June-2026



tarzda tartibga solingan. Tezkor-qidiruv faoliyatining qisman protsessuallashtirish yuz bergani va hozirgi kunda ham davom etayotganini (ya'ni tezkor-qidiruv protseduralarining shakllanish tendensiyasini) tasdiqlovchi omillar sifatida ilmiy qarashlar²¹ hamda idoraviy yo'riqnomalarda belgilangan qoidalarini keltirish mumkin. Ularda tezkor-qidiruv tadbirlariga tayyorgarlik ko'rish, o'tkazish va hujjatlashtirishning amaliyotda sinovdan o'tgan, puxta ishlab chiqilgan va nisbatan qat'iy tartiblari nazarda tutilgan.

Beshinchidan, yuqoridagi masalaning mantiqiy davomi sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, "hozirgi bosqichda tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazishni tartibga soluvchi protsessual normalar tizimini shakllantirishga ob'ektiv ehtiyoj mavjud"²².

Hozirgi vaqtda "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi qonunda Jinoyat-protsessual kodeksi normalariga o'xshash, tezkor-qidiruv tadbirlariga tayyorlik ko'rish, o'tkazish va rasmiylashtirishni tartibga soluvchi aniq qoidalar va ko'rsatmalar mavjud emas. Biroq bir qator idoraviy buyruqlar, yo'riqnomalar va ko'rsatmalarda bevosita ijrochilarga (tezkor xodimlarga) mazkur tadbirlarni o'tkazish bo'yicha namunaviy tavsiyalar hamda o'z mohiyatiga ko'ra tergov harakatlari bayonnomalariga o'xshash rasmiy shakllar taqdim etilgan. Mazkur tendensiyani baholash masalasida zamonaviy huquqshunos olimlar o'rtasida turli, ba'zan bir-biriga zid yondashuvlar shakllangan bo'lib, har biri muayyan nazariy va amaliy asoslarga tayanadi hamda o'ziga xos ishonarli argumentlarga egadir.

Fikrimizcha, tezkor-qidiruv amaliyotining uzoq vaqt davomida turli xususiyatga ega bo'lgan bir qator ob'ektiv va sub'ektiv sabablar ayrim tezkor-qidiruv tadbirlarining biz tanqid qilayotgan darajada soddalashib ketishi hamda ularni o'tkazish usullarining xilma-xilligi qisqarishiga olib kelgan. Tezkor-qidiruv faoliyatining mohiyati uchun xavfli bo'lgan muayyan "standartlashuv" va "algoritmashuv" jarayoni yuz berdi. Natijada ayrim tezkor-qidiruv tadbirlari o'zlariga xos bo'lgan avvalgi xilma-xillik va vaziyatdan kelib chiqib erkin qaror qabul qilish hamda improvizatsiya qilish xususiyatlarini amalda yo'qotdi.

Shu bilan birga, amaliyotda tez-tez qo'llaniladigan, namunaviy (tipik, standart) va bir vaqtda o'zining yakuniy natijadorligi jihatidan yetarlicha samarali bo'lgan tartiblar shakllangan. Mazkur tartiblar tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish jarayoni va uning natijalariga funksional zarar yetkazmagan holda qonun normalarida mustahkamlab qo'yilishi mumkin. Bundan tashqari, tezkor-qidiruv tadbirlarini rasmiylashtirish tartibiga doir talablar normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilab qo'yilishi ham mumkin. Shu bilan birga, tezkor-qidiruv tadbirlarining zamonaviy muhim xususiyatlari (o'ziga xos jihatlari)ni

²¹ Чечетин А.Е. Обеспечение прав личности при проведении оперативно-розыскных мероприятий: монография. Санкт-Петербург: СПбУ МВД России, 2016. С. 80 (232 с.); Тамбовцев А.И. Процедура и документальное оформление оперативно-розыскных мероприятий как критерии их доказательственного значения // Вестник СПбУ МВД России. 2018. № 3 (79). С. 127–134.

²² Чечетин А.Е. Теоретические и правовые проблемы оперативно-розыскных мероприятий: монография. Барнаул: Барнаульский юридический институт МВД России, 2005. 300 с.; Гусев В.А. Понятие и сущность юридических процедур проведения оперативно-розыскных мероприятий // Вестник Волгоградской академии МВД России. 2013. № 1. С. 63–70.

Date: 27th June-2026



qayd etish zarur. Bular, avvalo, ularning aksariyat hollarda konspirativ (nooshkora) tusga egaligi va tezkor xodimdan tashqari boshqa sub'ektlar yoki shaxslar, shu jumladan ko'maklashuvchi shaxslar tomonidan ham o'tkazilishi mumkinligidan iborat. Mazkur holatlar, shubhasiz, huquqiy normalarda tegishli tarzda aks ettirilishi kerak.

Tezkor-qidiruv tadbirlarida jinoyat protsessi institutining amalda implementatsiya qilingani ularning isbotlash imkoniyatlari va daliliy ahamiyatini sezilarli darajada oshirganini tan olgan holda, afsuski, mazkur yangilik eng ko'p aynan tezkor-qidiruv tadbirlarining ijodiy va vaziyatga moslashuvchan jihatiga ta'sir ko'rsatganini qayd etish lozim. Zero, mazkur xususiyat ularni tergov harakatlaridan ajratib turar va amaliyotda sezilarli ustunliklarni ta'minlab kelar edi. Tezkor-qidiruv instrumentlarini protsessual talablarga moslashtirishga qaratilgan yondashuv ularning asosiy ustunliklaridan biri hisoblangan amalga oshirish shakllarining xilma-xilligini cheklab qo'ydi.

Oltinchidan, huquqshunos olimlar ta'kidlaganidek, ilmiy hamjamiyat, huquqni muhofaza qilish va inson huquqlarini himoya qilish institutlari, shuningdek fuqarolik jamiyati vakillari o'rtasida tezkor-qidiruv tadbirlari natijalaridan jinoyat protsessida foydalanishga oid yondashuvning ularning daliliy ahamiyatini kuchaytirish tomon tubdan o'zgarib borayotgani ijobiy tendensiya sifatida baholanmoqda²³.

Jamiyat tomonidan qonuniy asosda o'tkazilgan tezkor-qidiruv tadbiri aslida jinoyat protsessiga protsessual tartibda olingan dalillardan sifat va protsessual talablarga muvofiqlik jihatidan qolishmaydigan, ayrim hollarda esa o'zining noyobligi bilan ulardan ustun turadigan "dalil"ni (axborot yoki predmet ko'rinishida) taqdim etishini anglab yetmoqda va, eng muhimi, buni qabul qilmoqda. Mazkur o'zgarishning ijobiy xususiyatiga qaramasdan, u hozircha jamiyatning ustuvor qarashiga, ijtimoiy ongning hukmron yondashuvga aylanganicha yo'q. Natijada tezkor-qidiruv instrumentlari hanuz ikkinchi darajali o'rinda qolmoqda hamda aksariyat hollarda ularga nisbatan munosabat shunchaki tanqidiy emas, balki salbiy va oldindan shakllangan biryoqlama sub'ektiv qarashlar asosida baholanmoqda.

Fikrimizcha, yuqorida bayon etilgan holatlar sudda ish yuritishning protsessual va tezkor-qidiruv jihatlari o'rtasidagi o'zaro uyg'unlik tobora kuchayib borayotganidan dalolat beradi. Bu esa ularning qonuniy ravishda yagona instrumentga transformatsiya bo'lib borayotganidan dalolat beradi. Mazkur instrument bir vaqtning o'zida bilish va isbotlashga oid, protsessual, tezkor-qidiruv hamda oshkora va nooshkora xususiyatlarni o'zida mujassam etgan bo'lib, uni ishlab chiqish zarurati hozirgi kunda ilmiy jamoatchilik tomonidan faol muhokama qilinmoqda²⁴. Shu bilan birga, mazkur jarayon tergov

²³ Захарцев С.И. Теория и правовая регламентация оперативно-розыскных мероприятий: дис. ... д-ра юрид. наук. Санкт-Петербург: СПбУ МВД России, 2004. С. 28 (41 с.).

²⁴ Гирько С.И., Луговик В.Ф., Гусев В.А. О правоотношениях, процедурах и оперативно-розыском праве // Труды Академии управления МВД России. 2017. № 4 (44). С. 19–26.

INTRODUCTION OF NEW INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN EDUCATION OF PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY.

International online conference.

Date: 27th June-2026

harakatlari hamda tezkor-qidiruv tadbirlarining har biriga xos bo'lgan va maxsus xususiyatlarning asta-sekin yo'qolib borishiga ham olib kelayotganini ko'rsatadi.



International Conferences
Open Access | Scientific Online | Conference Proceedings

